"ANOR BANK" AKSIYADORLIK JAMIYATI
AKSIYADORLARINING NAVBATDAN TASHQARI
UMUMIY YIG'ILISHI № 5/2026-SONLI
BAYONNOMASIdan
KO'CHIRMA

Toshkent shahri **28 oktabr 2026 yil**
Shahrisabz ko'chasi, 85 **Soat 11:00**

"ANOR BANK" AJ (bundan keyin – **"Bank"**) aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi bank Kuzatuv kengashining 2026-yil 02-oktabrdagi yig'ilishida qabul qilingan qarorga asosan chaqirildi.

Bank aksiyadorlarining navbatdan tashqari Umumiy yig'ilishi o'tkazilishi to'g'risidagi xabar O'zbekiston Respublikasi Markaziy depozitariysi tomonidan taqdim etilgan aksiyadorlar reestrida ko'rsatilgan har bir shaxsga 2026-yil 02-oktabr holatiga ko'ra shakllantirilgan bank aksiyadorlarining navbatdan tashqari Umumiy yig'ilishi o'tkazilishi haqida xabardor qilish uchun yuborildi.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari Umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan bank aksiyadorlari reestrini shakllantirish sanasi - 2026-yil 22-oktabr.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risida aksiyadorlarni xabardor qilish shakli:

- Yagona korporativ axborot portali - www.openinfo.uz (2026-yil 05-oktabrda joylashtirilgan);
- 2026-yil 05-oktabrda holatiga ko'ra Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi tomonidan aksiyadorlar reestrida taqdim etilgan aksiyadorlarning elektron pochtasi.

Yig'ilish kvorumi aksiyadorlarning navbatdan tashqari Umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan ovoz beruvchi aksiyalarning joylashtirilgan sonining 100 foizini tashkil etadi.

"Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 68-moddasiga muvofiq, navbatdan tashqari umumiy yig'ilishni o'tkazish uchun kvorum mavjud bo'lib, yig'ilish vakolatli deb topiladi.

Aksiyadorlar yig'ilishi raisi - Bank Kuzatuv kengashi raisi Sh.N. Nosirov bank aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini ochishni va aksiyadorlar yig'ilishi kotibini saylashni taklif etdi:

Aksiyadorlar yig'ilishi kotibi etib N.A. Amanova saylandi.

Kun tartibidagi to'rtinchi masala buyicha "ANOR BANK" AJ Kuzatuv kengashi a'zosini saylash to'g'risida" aksiyadorlar yig'ilishi

QAROR QILDI:

4.1. Voistinov Konstantin Alekseyevich nomzodi «ANOR BANK» AJ Kuzatuv kengashi a'zoligiga saylansin.

4.2. Bank Boshqaruvi (E.R. Nadjimitdinovga) "Bank faoliyatiga ruxsatnomalar berish tartibi va shartlari to'g'risida"gi Nizom talablariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida Kuzatuv kengashi a'zoligiga Voistinov Konstantin Alekseyevich nomzodini belgilangan tartibda kelishilsin (ro'yxat raqami 3252-son, 30.06.2020-yil).

4.3. Belgilab qo'yilsinki, Voistinov Konstantin Alekseyevichning Kuzatuv kengashi a'zosi sifatida vakolatlari O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining roziligi olinganidan keyin kuchga kiradi.

4.4. Kuzatuv kengashi a'zosi K.A.Voistinovga oylik mukofot miqdori 1-sonli ilovaga muvofiq belgilansin.

Kumulyativ ovoz berish natijalari:

Nomzodlar (Kuzatuv kengashi a'zolari)	Ovozlar soni (dona)
Voistinov Konstantin Alekseyevich	850 000 000

Majlis kotibi **Amanova N.A.**

«ANOR BANK»
акционерное общество
ВЫПИСКА ВЕРНА